*Advances in Science and Education*, 2025, 20–22

doi: 10.70728/edu.v01.i03.007
Volume 01, Issue 03
ISSN: 3060-5415
Paper

PAPER

# TA’LIM JARAYONIDA YANGICHA BAHOLASH TIZIMI

Qo‘qonboyeva Shaxlo Rafikjonovna[1], *, Yulchiyeva Munojotxon Isaboyevna[2], Kukonboyev Bahodir Muqimovich[3]

[1]Qo‘qon davlat universiteti dotsenti
[2]Furqat tuman politexnikumi bosh o‘qituvchisi
[3]Furqat tuman politexnikumi yetakchi o‘qituvchisi

* qo‘qonboyeva@gmail.com

## Abstract

Maqolada yangi baholash tizimi ikki asosiy turlari - formativ va summativ usullar bilan amalga oshirilishi, shuningdek, yangi baholash tizimining amaliyotga tatbiq etilish jarayoniga ham to‘xtaladi. Formativ baholash, o‘quvchining dars jarayonidagi faoliyatini kuzatish va uning bilim va ko‘nikmalarini o‘lchash jarayoni sifatida ta’riflanadi. Summativ baholash esa, ma’lum bir davr mobaynida yoki ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘quvchining bilim darajasini aniqlashga qaratilgan.

**Key words**:
baholash, formativ baholash, summativ baholash, bilim, qo‘llash, mulohaza.

## Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi PF–269- son “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2023-yil 26-maydagi PF–79-son “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlariga muvofiq Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning bilimi formativ va summativ usullarda ham baholanishi mumkin.

Bugungi kunda respublikamizda o‘quvchilar bilimini nazorat qilishni haqqoniy va shaffof o‘tkazish uchun yangi baholash tizimi joriy qilinmoqda. 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab Prezident ta’lim muassasalari agentligi boshchiligida Muhammad al Xorazmiy axborot texnologiyalari maktabi tomonidan yangi ishlab chiqilgan baholash tizimi tajriba-sinov tariqasida amaliyotga tatbiq etilgan bo‘lsa. 2024-2025 o‘quv yilida O‘zbekistonda bir nechta umumta’lim maktablariga yangicha baholash tizimi joriy etildi. Al Xorazmiy axborot texnologiyalari maktabida hozirgi kunda ham baholash tizimi yangicha tartibda olib borilmoqda.

Yangicha baholash tizimi 2 turda bo‘ladi summativ va formativ ko‘rinishda.

O‘quvchining choraklik bahosi (maksimal 100 ball) quyidagicha shakllanadi:

10 ball chorak davomida formativ baholash (o‘qituvchi tomonidan baholanadi);

50 ball chorak davomidagi bob bo‘yicha summativ baholash (o‘qituvchi tomonidan baholanadi);

40 ball chorak oxirida chorak bo‘yicha summativ baholash (o‘qituvchi yoki vazirlik tomonidan baholanadi).

O‘quvchining o‘quv yili davomida to‘plagan ballari quyidagi taqsimot asosida baho shakliga o‘tkaziladi (konvertatsiya qilinadi):

| Ballar | Baho | Izoh |
|---|---|---|
| 86–100 | 5 | A’lo |
| 66–85 | 4 | Yaxshi |
| 30–65 | 3 | Qoniqarli |
| 0–29 | 2 | Qoniqarsiz |

Bunda o‘quvchi o‘quv choragi davomidagi darsdagi ishtiroki, faolligi orqali 1 dan 10 ballgacha bo‘lgan tizimda baholanadi. Qolgan 90 ballni esa Summativ baholash tizimi asosida oladi.Summativning o‘zi ikki turga bo‘linadi:

1. BSB - bob bo‘yicha Summativ baholash

. ChSB - chorak bo‘yicha Summativ baholash.

ChSB yilda mavjud bo‘lgan chorak miqdorida qo‘yiladi. Ya’ni o‘quvchi yilda 4 marotaba yoki ba’zi (haftada 1 marotaba o‘tiladigan) fanlar kesimida yilda 2 marta topshiradi. ChSB bir o‘quv yili davomida 40 ball, BSB 50 baldan iborat bo‘ladi.

**Compiled on:** June 6, 2025.
Manuscript prepared by the author.

O‘quvchilarning bilimini formativ va summativ usullarda baholash joriy etiladigan umumiy o'rta ta’lim muassasalari ro'yxati vazirlik tomonidan tasdiqlanadi.

Summativ baholash – ma’lum davrda yoki ma’lum bob yuzasidan berilgan bilimlarning darajasini aniqlashga qaratilgan bo‘ladi. Ya’ni, bunda o‘qituvchi muayyan miqdorda mavzularni qamrab olgan bobni o‘quvchiga yetkazib bergach, o‘quvchilarning ushbu bob yuzasidan olgan bilimlari aniqlanadi. Avvalgi baholash tizimida bu choraklar bo‘yicha nazorat ishlari ko‘rinishida bo‘lgan.

Formativ baholash – dars mashg'ulotlari davomida o'quvchilar faoliyatini kuzatish hamda ularning bilim va ko'nikmalarini o'lchash hamda natijani yaxshilash uchun ko'rsatmalar berish jarayoni hisoblanadi.

Formativ baho bir chorak (o'quv reja asosida o'quv fanlariga ajratilgan haftalik soat sonidan kelib chiqib, yarim yillik va yillik bo'lishi mumkin) davomida1 balldan 10 ballgacha qo'yib borilgan ballarning o'rta arifmetigidan shakllantiriladi.

Har bir o'quvchi bir chorak davomida (yarim yillik, yillik) kamida 4 marta o'qituvchi tomonidan formativ baholanishi kerak.

Summativ baholash bob bo'yicha summativ baholash hamda chorak bo'yicha summativ baholashni o'z ichiga oladi.

Har bir o'quv fani bo'yicha summativ baholash uchun test topshiriqlari shakli (o'quv fani mazmuni, tarkibi, savollar soni, topshiriqlar turi, vaqt me’yorlari) vazirlik tomonidan belgilanadi.

Bob va chorak bo'yicha summativ baholash uchun nazorat materiallari va ularning spetsifikatsiyalari, sillabuslari va baholash mezonlari vazirlik tomonidan umumiy o'rta ta’lim muassasalariga har o'quv yili davomida taqdim etiladi.

Bob bo'yicha summativ baholash o'quvchining o'quv fanlari bobi hamda bo'limlarining o'zlashtirish darajasini aniqlash va baholash usuli hisoblanadi.

Bob bo'yicha summativ baholash jarayoni o'quv rejasi asosida o'quv fanlariga ajratilgan haftalik soatdan kelib chiqib, 1 martadan 3 martagacha o'tkazilishi mumkin (haftasiga 1-2 soatgacha ajratilgan o'quv fanlari bo'yicha 1 marta, 3-4 soatgacha ajratilgan o'quv fanlari uchun 2 marta, 5 va undan ortiq soat ajratilgan o'quv fanlari uchun 3 marta). Bob bo'yicha summativ baholashga barcha turdagi yozma ishlar, amaliy ish, laboratoriya ishi, loyiha ishi, ijodiy ish, og'zaki javob talab etuvchi topshiriqlar kiradi.

Masalan 6-sinf Tabiiy fanlardan 2024-2025 o‘quv yilida II-chorakda 3-Bob bo'yicha summativ baholash amaliy ish ko‘rinishida tanlab olingan.

**O‘quvchi to‘plagan umumiy ball: _____ (maksimal ball: 25)**

**II CHORAK 3-BSB**

**AMALIY ISH. NAFAS SISTEMASI MODELINI TAYYORLASH**

**Ishning maqsadi:** Nafas sistemasi modelini tayyorlash. Model orqali nafas harakatlariga qovurg‘alar qanday yordam berishini tushunish.

**Kerakli jihozlar:** ikkita naycha, ikkita pufak, yopishqoq tasma (skotch), ikkita rezina halqacha, ikki bo‘lak karton qog‘ozi, yelim.


**Ishni bajarish tartibi:**

1. Ikkita naychani yonma-yon qo‘yib, yopishqoq tasma yordamida mahkamlang. *(3 ball)*


2. Har bir naychaning pastki qismiga pufaklarni rezina halqachalar yordamida mahkamlang.*(3ball)*

Pufaklarni bir necha marta cho‘zing.

3. Pufaklarni ikkita karton bo‘lagi orasiga joylashtiring. Ularni yelim yordamida kartonga yopishtiring. Pufaklar o‘pkalarni, ikkita karton bo‘lagi esa qovurg‘alarni ifodalaydi.*(4 ball)*




4. Ikkita karton bo‘lagini qarama-qarshi tomonga ohista torting.




Pufaklarda qanday o‘zgarish sodir bo‘lishini kuzating. Pufaklar o‘lchami qanday o‘zgarganini yozing. *(5 ball )*

_____

_____

5. Raqam bilan belgilangan nafas sistemasi organlari nomini yozing. *(3 ball)*

1. _____


2. _____

3. _____

4. _____

5. _____

6. _____




6. Nafas olganda o‘pkalar va qovurg‘alarda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lishini model yordamida bayon eting. *(7 ball)*

_____
_____
_____

**Baholash mezoni:**

| **Ishni bajarish ketma-ketligi** | **Ball** | **Baholash** |
|---|---|---|
| 1-qadam | 3 | ish orasta va tartibli bajarilsa |
| | 2 | orasta bajarilmagan, tartibsiz bo‘lsa |
| 2-qadam | 3 | ish orasta va tartibli bajarilsa |
| | 2 | orasta bajarilmagan, tartibsiz bo‘lsa |
| 3-qadam | 4 | naychalar, pufaklar, karton bo‘laklari o‘lchamlari o‘zaro muvofiq bo‘lishi, model dizayniga e’tibor berilganligi, ish orasta bajarilgan |
| | 3 | jihozlar o‘lchami mos kelmagan va, ish orasta bajarilmagan, tartibsiz bo‘lsa |
| 4-qadam | 5 | Pufak o‘lchami kattalashadi yoki hajmi ortadi, chunki ularning ichiga havo kiradi. |
| | 3 | Pufak ichiga havo kiradi/ **YOKI** pufak kattalashadi |
| 5-qadam | 3 *har bir to‘g‘ri yozilgan organ nomi - 0,5 ball* | 1- Burun bo‘shlig‘i<br>2- Halqum<br>3- Hiqildoq<br>4- Traxeya<br>5- Bronxlar<br>6- O‘pkalar |
| 6-qadam | 7 | Modelda pufak va karton bo‘lagi qaysi organ funksiyasini bajarishi **VA** odam nafas olganda qovurg‘alar ko‘tarilishi ifodalangan bo‘lsa.<br>**Masalan**: Modelda pufak o‘pkalar, karton esa qovurg‘alar vazifasini bajaradi.Odam nafas olganida qovurg‘alar ko‘tariladi, natijada o‘pkalarning hajmi ortadi va ularga havo kiradi. |
| | 4 | Modelda pufak va kartonning vazifasi / **YOKI** odam nafas olganda qovurg‘alarning qanday o‘zgarishi yozilgan bo‘lsa. |
| **JAMI** | **25 ball** | |

Hozirgi kunda Abdulla Qodiriy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek kabi ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar o‘quvchilari uchun og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, formativ va summativ baholashni ballarda taqsimlanishini qayta ko‘rib chiqish va muvofiqlashtirish, BSB larda beriluvchi instrumentlarni ko‘rib chiqish va kriteriyalar asosida to‘liq yozib chiqish, ushbu tizimni boshqa maktablarda ham tatbiq etish yuzasidan ishlar olib borilmoqda.

## Adabiyotlar

1. https://www.lex.uz/pdffile/7362905
2. https://piima.uz/uz/news/maktab-baholash-tizimida-inson-omili-minimallashtiriladi